

GENDER TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA ETNOPEDAGOGIK YONDASHUVNING O'ZIGA XOSLIKLARI

N.J.Hayrullayeva

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Namangan filali Boshlang'ich ta'lim
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya Ushbu maqolada gender tolerantlikni shakllantirish va rivojlantirishda yetnopedagogik yondashuvning ahamiyati va o'zni tahlil etilgan. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar asosida tolerantlik madaniyatini shakllantirishning imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, yosh avlod ongida barqaror gender munosabatlarini mustahkamlashda xalq pedagogikasining o'ziga xos tarbiyaviy mexanizmlari ochib berilgan. Maqolada yetnopedagogikaning ta'lim-tarbiya jarayonidagi qo'llanilishi orqali jamiyatda barqaror va bag'rikeng muhitni yaratish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar gender tolerantlik, etnopedagogika milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, tarbiya, urf-odatlar, an'analar.

CHARACTERISTICS OF THE ETHNOPEDAGOGICAL APPROACH IN DEVELOPING GENDER TOLERANCE

Annotation: This article analyzes the importance and role of the ethnopedagogical approach in the formation and development of gender tolerance. It explores the possibilities of shaping a culture of tolerance based on national values, customs, and traditions. The article also highlights the unique educational mechanisms of folk pedagogy in strengthening stable gender relations in the minds of the younger generation. Furthermore, it discusses the ways of creating a stable and tolerant environment in society through the application of ethnopedagogy in the educational process.

Keywords: gender tolerance, ethnopedagogy, national values, folk pedagogy, education, customs, traditions

ОСОБЕННОСТИ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ГЕНДЕРНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ

Аннотация В данной статье проанализированы значение и роль этнопедагогического подхода в формировании и развитии гендерной толерантности. Рассмотрены возможности формирования культуры толерантности на основе национальных ценностей, обычаев и традиций. Также раскрыты особенности воспитательных механизмов народной педагогики в укреплении устойчивых гендерных отношений в сознании подрастающего поколения. В статье освещаются пути создания стабильной и толерантной среды в обществе посредством применения этнопедагогики в образовательном процессе.

Ключевые слова: *гендерная толерантность, этнопедагогика, национальные ценности, народная педагогика, воспитание, обычаи, традиции.*

KIRISH

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida inson huquqlari, tenglik va gender adolati masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, gender munosabatlarida bag'rikenglik, o'zaro hurmat va adolat prinsiplarini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda ta'lim tizimi, ayniqsa, tarbiyaviy yo'nalishdagi sa'y-harakatlar muhim o'rin tutadi. Chunki insonning ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan yondashuvi, boshqalarga bo'lgan munosabati va bag'rikenglik tuyg'ulari aynan bolalik va o'smirlik davrida asos solinadi.

Gender tolerantlik — bu ayol va erkaklar o'rtasidagi tenglik, o'zaro hurmat va adolatli munosabatlar asosida quriladigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir. U nafaqat qonunlar yoki huquqiy me'yorlar darajasida, balki shaxsning ichki madaniyati, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtai nazardan qaralganda, gender tolerantlikni shakllantirishda faqat zamonaviy g'oyalar emas, balki xalqning ko'p asrlik ma'naviy merosi, urf-odatlar va an'analarga asoslangan **yetnopedagogik yondashuv** ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yetnopedagogika xalq pedagogikasining nazariy va amaliy asoslarini o'rganuvchi fan sifatida, tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni, xalq tajribasini va an'alarini samarali qo'llash imkoniyatini beradi. Xususan, yosh avlod ongida gender tolerantlikni shakllantirishda xalq ijodining — ertaklar, rivoyatlar, maqol-matallar, qo'shiq va udumlarning — ta'sir kuchidan samarali foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Gender tolerantlik va yetnopedagogik yondashuv kabi murakkab va ko'pqirrali tushunchalarning o'zaro bog'liqligini chuqur anglash uchun turli manbalar tahlil qilinishi lozim. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilishdan ko'rinadiki, mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar xalqaro va mahalliy darajada faol olib borilmoqda.

Gender masalalari bo'yicha Judit Batler (Judith Butler) tomonidan ilgari surilgan "*Gender Trouble*" asarida gender tushunchasi ijtimoiy konstrukt sifatida ko'riladi va uning jamiyatda qanday shakllanishi, qanday rol o'ynashi keng yoritiladi. Bu g'oyalar asosida gender tengligi nafaqat biologik, balki ijtimoiy va madaniy ta'sirlar asosida shakllanishi ta'kidlanadi. Pyer Burdyoning *Masculine Domination* ("Erkaklar hukmronligi") asarida gender zo'ravonligi va jamiyatdagi tengsizlik muammolari sosiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi¹. U "simvolik zo'ravonlik" tushunchasi orqali ayollar va erkaklar o'rtasidagi mavqe farqlari qanday qilib ijtimoiy munosabatlar tizimida tabiiylashtirilishi va ta'lim orqali mustahkamlanishini ko'rsatadi. Muallif fikricha, ushbu holatni isloh qilish uchun ta'lim va tarbiya tizimida tanqidiy yondashuv zarur bo'lib, gender tengligini ta'minlashga qaratilgan madaniy va axloqiy islohotlar talab etiladi. Nensi Freyzerining *Justice Interruptus* ("Adolatga xalaqit") asarida esa ijtimoiy adolat konsepsiyasi feministik nuqtai nazardan keng muhokama etiladi. Uning ta'kidlashicha, jamiyatda haqiqiy tenglik va adolatni qaror toptirish uchun ta'limda teng imkoniyatlar, madaniy e'tirof va qayta taqsimlash siyosatlari o'zaro uyg'unlashgan holda amalga oshirilishi kerak. Ta'limdagi tenglik, ayniqsa, gender munosabatlarida fuqarolik tengligi va madaniy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

O'zbekistonda gender masalalari, tolerantlik va xalq pedagogikasi bo'yicha tadqiqotlar soni yil sayin ortayotgani kuzatilmoqda. N. Fayziyeva o'zining "Inson huquqlari va gender tenglik" nomli tadqiqotida O'zbekistonda gender masalalariga oid davlat siyosati, ta'lim va tarbiya tizimidagi zamonaviy yondashuvlar, qonuniy-huquqiy asoslar va amaliy jarayonlarni chuqur tahlil qiladi. Muallif ta'kidlashicha, gender tengligini shakllantirish jarayonida ta'lim hal qiluvchi omil bo'lib, u orqali milliy ma'naviyat, xalq qadriyatlari va an'analar bilan uyg'unlashgan holda inson huquqlarini rivojlantirish mumkin. Sh. Raxmonov o'z tadqiqotlarida xalq ijodini — xususan, ertaklar, rivoyatlar, maqol-matallar va milliy afsonaviy obrazlarni — bag'rikenglik, o'zaro hurmat va insoniy fazilatlarni tarbiyalashda ta'sirli va samarali tarbiyaviy vosita sifatida baholaydi. Uning fikricha, ana shunday xalq ijodi namunalari orqali yosh avlod ongida mustahkam axloqiy pozisiya, adolatparvarlik

va insonparvar munosabatlarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish mumkin. Bunda milliy ma'naviy meros tarbiyaning ajralmas qismiga aylanib, gender tolerantlikni shakllantirishda muhim vosita vazifasini o'taydi. O. Shukurov va M. Norova kabi tadqiqotchilar yetnopedagogikaning nazariy-metodologik asoslari, uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati hamda milliy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq jihatlarini chuqur tahlil etishgan. Ular o'z ishlarida xalq pedagogikasi an'analari, urf-odatlar va milliy bayramlar orqali tarbiya jarayonida insonning ma'naviy kamolotini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadilar. Xususan, milliy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda oilaviy munosabatlar, jamoa qadriyatlari va tarixiy an'analarning o'рни qayd etiladi. Mualliflar ta'kidlashicha, yetnopedagogik yondashuv orqali ta'limda insoniylik, hurmat, hamjihatlik va bag'rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlarni samarali targ'ib etish mumkin.

Tahlil qilinayotgan manbalarda umumiy yo'nalish sifatida ta'lim orqali jamiyatda tenglik, adolat va bag'rikenglik muhitini shakllantirish g'oyasi yotadi. Xalqaro tadqiqotlar asosan falsafiy va sosiologik yondashuvlarga suyanadi, milliy tadqiqotlar esa xalq pedagogikasi va milliy qadriyatlarga asoslangan amaliyotni ilgari suradi. Ana shu jihatdan, mazkur maqolada milliy an'analar va etnopedagogik yondashuvlar orqali gender tolerantlikni rivojlantirish masalasini ilmiy asosda yoritish, xalqaro va mahalliy tajribalarni uyg'unlashtirishga harakat qilindi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, gender tolerantlikni shakllantirishda xalq pedagogikasiga asoslangan yetnopedagogik yondashuv samarali mexanizm hisoblanadi. Xususan, xalq ijodiga xos tarbiyaviy vositalar — ertaklar, maqol-matallar, qo'shiqlar va an'analar orqali yosh avlod ongida hurmat, bag'rikenglik va teng huquqlilik tamoyillari mustahkamlanadi. Milliy qadriyatlar asosida shakllangan tarbiya tizimi, ayniqsa, ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro hurmat va adolatli munosabatlarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida xalq pedagogikasi va milliy an'analarni interfaol ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirish, bolalar va yoshlarda ijobiy gender munosabatlarini

shakllantirish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bunda xalq ijodidagi ijobiy obrazlar, tarbiyaviy g'oyalar, urf-odatlar va milliy udumlar asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek, pedagogik amaliyotda yetnopedagogik yondashuvni tizimli ravishda joriy etish orqali jamiyatda barqaror, adolatli va bag'rikeng muhitni shakllantirish mumkinligi aniqlandi.

Shu bilan birga, gender tolerantlikni shakllantirish jarayoni maktab yoshida boshlanib, maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda uzviy va maqsadli yo'lga qo'yilishi zarur. Yetnopedagogik yondashuvni to'g'ri va tizimli tatbiq etish orqali jamiyatda insonparvarlik, tenglik va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni qaror toptirish mumkin.

MUHOKAMALAR

Tadqiqot davomida gender tolerantlikni shakllantirishda yetnopedagogik yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari hamda amaliy imkoniyatlari tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, xalq pedagogikasida mujassam topgan ma'naviy-axloqiy tarbiya tamoyillari gender munosabatlarida tenglik va o'zaro hurmatni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bunda xalq ijodiga xos bo'lgan folklor, urf-odatlar va milliy an'analar yosh avlod ongiga bevosita ta'sir etuvchi kuchli vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq bugungi kunda ta'lim jarayonida yetnopedagogik yondashuvning barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotgani ham aniqlandi. Jumladan, gender tolerantlikni shakllantirishda xalq ijodini interfaol ta'lim metodlari bilan uyg'unlashtirishga yetarlicha e'tibor berilmayotgani ko'zga tashlanadi. Bu esa ta'lim jarayonida insonparvarlik, bag'rikenglik va adolat tuyg'ularini yanada mustahkamlash imkoniyatlarini cheklaydi.

Shuningdek, gender masalasi ko'pincha huquqiy yoki ijtimoiy munosabatlar kontekstida o'rganilayotgan bo'lib, uning tarbiyaviy-axloqiy jihatlari yetarlicha qamrab olinmagan. Bunda yetnopedagogikaning o'ziga xos mexanizmlarini tadqiq etish orqali ta'limning insonni kamolotga yetkazuvchi vazifasini to'liq amalga oshirish mumkin.

Muhokamadan chiqadigan yana bir muhim jihat shundaki, gender tolerantlikni shakllantirish faqat ma'lum ta'lim bosqichi bilan cheklanmasligi kerak.

Bu jarayonni maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda, tizimli va uzviy ravishda yo'lga qo'yish talab etiladi. Ana shundagina jamiyatda gender tengligi, bag'rikenglik va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlar barqaror tus oladi.

Shu bois, pedagogik tadqiqotlar doirasida yetnopedagogik yondashuv va gender tarbiyasining integratsiyalashuvi bo'yicha yangi uslubiy qo'llanmalar, darsliklar va mashg'ulot ssenariylari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu, o'z navbatida, ta'lim muassasalarida amaliy foydalanish uchun qulay va samarali yechim bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Yo'naltirilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gender tolerantlik – jamiyatda ayol va erkaklar o'rtasidagi o'zaro hurmat, bag'rikenglik va teng huquqli munosabatlarni ta'minlashga qaratilgan muhim ijtimoiy-axloqiy tamoyillardan biridir. Bu tamoyillarni yosh avlod ongida shakllantirishda ta'lim-tarbiya tizimining roli beqiyos. Mazkur maqolada olib borilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, xalq pedagogikasiga asoslangan yetnopedagogik yondashuv gender tolerantlikni rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Xususan, xalq ijodi namunalari, milliy urf-odatlar, maqol-matallar, ertaklar va qo'shiqlar orqali bolalar va yoshlarda bag'rikenglik, insonparvarlik va o'zaro hurmat tuyg'ularini tarbiyalash mumkin.

Bugungi kunda ta'lim amaliyotida ushbu yondashuv yetarlicha qo'llanilmayotgani, ayniqsa gender tarbiyasida xalq pedagogikasining potentsiali to'liq ro'yobga chiqmayotgani aniqlandi. Shu bois, ta'lim jarayonida yetnopedagogikaning gender tarbiyasidagi samaradorligini oshirish uchun maxsus metodik qo'llanmalar, o'quv dasturlari va tarbiyaviy tadbirlar majmuasini ishlab chiqish zarur.

Bundan tashqari, gender tolerantlikni shakllantirish faqat maktab yoshida emas, balki maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda uzviylik asosida yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq. Ana shundagina jamiyatda teng huquqlilik, adolat va bag'rikenglik muhiti barpo etilishiga erishiladi. Yetnopedagogik yondashuv orqali ta'limda milliylik va globallik o'rtasidagi

muvozanat saqlangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan gender madaniyatini shakllantirish imkoni yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fayziyeva N. "Inson huquqlari va gender tenglik" – Toshkent: «Adolat», 2020. – 148 b.
2. Shukurov O. "Etnopedagogika va milliy qadriyatlar" – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 212 b.
3. Norova M. "Xalq pedagogikasi asosida ma'naviy tarbiya" // Pedagogika fanlari jurnali. – 2021. – №3. – B. 44–48.
4. Raxmonov Sh. "Bag'rikenglik tarbiyasida xalq ijodining ahamiyati" // Milliy tarbiya. – 2019. – №2. – B. 21–25.
5. Hasanova D. "Gender tenglik: nazariya va amaliyat" – Toshkent: Fan, 2022. – 176 b.
6. Butler J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. – New York: Routledge, 1990.
7. Bourdieu P. Masculine Domination. – Stanford University Press, 2001.
8. Fraser N. Justice Interruptus: Critical Reflections on the "Postsocialist" Condition. – New York: Routledge, 1997.
9. UNESCO. Gender Equality and Education: Looking Beyond Parity. – Paris: UNESCO Publishing, 2019.
10. Xalqaro pedagogik ensiklopediya. – Toshkent: Sharq, 2020. – 392 b.